

**Bank Boshqaruvining 2022-yil 30-dekabrda IMB/LGD/HO/22/101- sonli Qarori bilan tasdiqlangan.**

**OMMAVIY OFERTA –  
JISMONIY SHAXSLAR UCHUN BANK KARTALARINI CHIQUARISH VA ULARGA  
XIZMAT KO‘RSATISH TO‘G‘RISIDAGI SHARTNOMA**

**1. Umumiy qoidalar**

**1.1.** Ushbu ommaviy oferta "KDB Bank O‘zbekiston" AJ (keyingi o‘rinlarda - Bank) taklifi bo‘lib, Bank mijozlari - jismoniy shaxslarga bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatishning standart shartlarini va tartibini belgilaydi.

**1.2.** O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 370-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, jismoniy shaxs tomonidan bank xizmatlarini taqdim etish uchun ariza (keyingi o‘rinlarda - Ariza) bilan bankka murojaat qilingan paytdan boshlab, hisobvaraqlar ochish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar taqdim etilib, shaxsan imzolangan hamda mijoz lozim darajada tekshirishdan muvaffaqiyatli o‘tganidan so‘ng Shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi va kuchga kiradi.

Ushbu taklifni qabul qilgan jismoniy shaxs Bankning mijoz - karta hisobvarag‘ining egasiga, o‘z navbatida, Bank bilan mijoz ushbu Ofertaning tomonlariga aylanadi;

**1.3.** Shartnomaning barcha ilovalari Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

*Itimos, ushbu ommaviy oferta matnini diqqat bilan o‘qing va Bank tariflari bilan tanishib chiqing.*

*Agar siz taklifning biron-bir bandiga rozi bo‘lmasangiz, xizmatlardan foydalanishni rad etishga haqlisiz.*

**2. Asosiy atamalar va ta’riflar:**

**2.1. Ommaviy oferta** - Bank va Mijoz o‘rtasida, mijoz tomonidan taklifni qabul qilish yo‘li bilan tuzilgan mazkur shartnoma (bundan buyon matnda "Shartnoma" deb yuritiladi);

**2.2. Bank** - "KDB Bank O‘zbekiston " AJ va uning barcha alohida bo‘linmalari;

**2.3. Qonun hujjatlari** – O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, shu jumladan, qonunlar, qonunosti hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari;

**2.4. Lozim darajada tekshirish** – mijozning shaxsini aniqlash va tekshirish, shuningdek, mijoz tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalarning maqsad va mohiyatini o‘rganish, shu jumladan, Bankka taqdim etilgan hujjatlar (ma’lumotlar)ga muvofiqligini tekshirish maqsadida pul mablag‘larining manbaya to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish va qayd etish. Bank Mijozni lozim darajada tekshirish tartib-tamoilini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablari, tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashni tartibga soluvchi Bankning ichki nazorat (komplayens) talablari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik kengashi ("UNSC"), Yevropa Ittifoqi ("EU"), AQSh Moliya vazirligining Chet el aktivlarini nazorat qilish boshqarmasi ("OFAC"), Moliyaviy xizmatlar komissiyasi ("FSC"), Moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish agentligi ("FinCen") va AQSh Savdo vazirligining Sanoat va xavfsizlik byurosi ("BIS") tomonidan qabul qilingan sanksiya cheklavlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi maxsus vakolatli davlat organining me’yoriy ko‘rsatmalariga rioya qilgan holda amalga oshiradi;

**2.5. Mijoz** - ushbu Shartnoma shartlarini qabul qilgan rezident / norezident jismoniy shaxs yoki uning qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida ish yurituvchi vakili (vakolatli shaxs);

**2.6. Bank kartasi (keyingi o‘rinlarda - Karta)** – Uning saqlovchisiga to‘lov infratuzilmalari orqali to‘lovlarni amalga oshirish, naqd pul yechish va bank kartasining emitenti tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarni bajarish imkonini beruvchi to‘lov vositasi;

**2.7. Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (keyingi o‘rinlarda - SHTH)** - O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi identifikatsiya kartasi, yangi turdagi milliy haydovchilik guvohnomasi, 16 (o‘n olti) yoshga to‘lmagan fuqaroning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi, harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan berilgan shaxsiy guvohnoma yoki harbiy bilet (harbiy xizmatga majbur bo‘lgan fuqarolarning harbiy kartalari bundan mustasno), chet el fuqarosining milliy pasporti (tegishli ichki ishlar organlari tomonidan chet el fuqarosi ro‘yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjat bilan birga) yoki chet el fuqarosining O‘zbekiston Respublikasida yashash uchun ruxsatnomasi yoki diplomatik pasport yohud Respublikada akkreditatsiyadan o‘tganini tasdiqlovchi akkreditatsiya kartasi; xorijiy davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning shaxsiy ID kartasi; fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar uchun O‘zbekiston Respublikasida yashash uchun ruxsatnoma;

**2.8. PIN-kod** - Bank kartasi saqlovchisining shaxsiy identifikatsiya raqami bo‘lib, u karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini boshqarish huquqini hamda mablag‘larini boshqarishga bank kartasining saqlovchisi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi;

**2.9. POS-terminal** – Karta yordamida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan elektron terminal;

**2.10. Avtorizatsiya** - Tizim ishtirokchisining (shu jumladan, Bankning) Karta va / yoki Karta ma’lumotlari yordamida to‘lovni amalga oshirishga ruxsati;

**2.11. Faol balans** – Kartadagi mijoz foydalanishi mumkin bo‘lgan mablag‘;

**2.12. Bank kuni** - Bankning ish kuni, shanba, yakshanba va O‘zbekiston Respublikasida rasman belgilangan bayram kunlari va qo‘shimcha dam olish kunlaridan tashqari;

**2.13. Kartani bloklash** - Bank (yoki Mijoz) tomonidan Karta bilan operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatining oldini oluvchi yoki to‘xtatuvchi choralarning ko‘rilishi;

**2.14. Kartani blokdan chiqarish** - Bank tomonidan Kartaning ishlashini qayta tiklash choralari ko‘rish;

**2.15. Ko‘chirma** - Mijozning so‘rovida ko‘rsatilgan vaqt mobaynida Bank tomonidan belgilangan shaklda tuzilgan Karta hisobvarag‘i yoki Karta tizimidan ko‘chirma. Ko‘chirmada Karta operatsiyalari va Bank komissiyalari aks ettiriladi;

**2.16. Masofaviy xizmatlar** - Mijoz tomonidan Bankka tashrif buyurmay turib, Bankning mobil ilovasi, “Bank-mijoz” va “Internet-banking” tizimlari vositasida Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar;

**2.17. Karta operatsiyasi (tranzaksiya)** - Shartnomada va Bankning ichki hujjatlarida belgilangan shartlarda Mijozga xizmat ko‘rsatishda Bank va Mijoz va / yoki tegishli Tizim ishtirokchilari tomonidan bir-biriga uzatiladigan ishlov berilgan xabarlar ketma-ketligi. Karta operatsiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Hisobvaraqlarni debitlash (savdo / xizmat ko‘rsatish korxonalarida tovarlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz to‘lov, naqd pul olish bilan bog‘liq debit operatsiyalari);
- Hisobvaraqlarni kreditlash, ya’ni karta hisobvarag‘iga pul o‘tkazish;
- Shartnoma va Bankning ichki hujjatlarida belgilangan shartlar asosida boshqa operatsiyalar;

Karta va / yoki karta ma'lumotlari yordamida amalga oshirilgan har qanday operatsiyalar;

**2.18. Karta hisobvarag'i** - Bank Kartasi orqali pul mablag'larini tasarruf etish mumkin bo'lgan bank hisobvarag'i;

**2.19. Sug'urta depoziti** – Mijozning hisobvarag'idagi Mijoz foydalana olmaydigan va Overdraft yoki Mijozning Bank oldidagi qarzi yuzaga kelganda Bank tomonidan foydalanilishi ko'zda tutilgan mablag'larning minimal qoldig'i;

**2.20. To'lov tizimlari (Tizim)** - to'lovlarni to'lov tizimining operatori, to'lov tizimi ishtirokchilari va (yoki) to'lov tashkilotlarining to'lov tizimi operatori tomonidan belgilangan tizim tartib-taomillarini, infratuzilmasini va qoidalarini qo'llash vositasida hamkorlik qilish yo'li bilan amalga oshirishni ta'minlaydigan munosabatlar majmuidir;

**2.21. Overdraft / texnik overdraft** - Bank tomonidan ruxsat etilmagan Karta hisobvarag'idagi mavjud mablag'dan ortiq miqdorning texnik sabablarga ko'ra mijoz tomonidan ortiqcha sarflanishi;

**2.22. Maxfiy Parol (3D Secure/SecureCode)** - Mijoz Karta ma'lumotlari yordamida operatsiyalarni amalga oshirganda uni identifikatsiyalash uchun ishlatiladigan bir martalik maxfiy kod. Kod Bank/to'lov tizimi dasturida ro'yxatdan o'tgan mobil telefon raqamiga yuboriladi;

**2.23. Karta ma'lumotlari (rekvizitlar)** - Kartada mavjud bo'lgan va / yoki unda saqlanadigan ma'lumotlar, mijozga, Karta emitentiga (Bankka) va tegishli Tizimga Kartaga egalik huquqini aniqlash imkonini beradi;

**2.24. Shaxsga doir ma'lumotlar** - elektron, qog'oz va (yoki) boshqa materiallarga yozilgan Mijozga tegishli yoki uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi ma'lumotlar;

**2.25. Telefon suhbatlari uchun parol** - Arizada yoki Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan boshqa yozma hujjatlarda ko'rsatilgan, raqamli, harfli yoki harf va raqamli ko'rinishda mijoz tomonidan tanlangan kombinatsiya bo'lib, Bank tomonidan telefon orqali mijozni identifikatsiyalash uchun ishlatiladi;

**2.26. Kundalik operatsiyalar limiti** - Bankning ichki tartibi va shartnomaga muvofiq, karta yordamida amalga oshiriladigan operatsiyalarining maksimal miqdorini va/yoki sonining chegarasi;

**2.27. CVN (CVV/CVC) kod** – Bank Kartasining maxfiy raqami bo'lib, internet orqali to'lovlarni amalga oshirishda qo'llaniladi.

### **3. Shartnomaning predmeti**

**3.1.** Shartnoma predmeti Bank va mijoz o'rtasidagi bank kartasi (kartalari)ning hisobvarag'ini ochish, chiqarish, xizmat ko'rsatish va hisob-kitoblarni amalga oshirishdagi o'zaro munosabatlari hisoblanadi.

**3.2.** Shartnoma shartlari standart shaklda belgilangan bo'lib, mijoz tomonidan:

- Ariza va kerakli hujjatlarni Bankka topshirish;

- Bankning korporativ sayti yoki mobil ilovasining bank kartasini chiqarishga masofadan turib ariza berish imkonini beruvchi amaliyotlarni bosqichma-bosqich bajarish; yohud

- Bank tomonidan ushbu Shartnoma yoki Bank tariflariga o'zgartirish kiritilgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kunidan so'ng bank kartasidan foydalanishni davom ettirish orqali akseptlanadi.

Mijoz Shartnomani akseptlash orqali bankning [www.kdb.uz](http://www.kdb.uz) veb saytida e'lon qilingan Bank tariflari va Shartnoma shartlari bilan tanishganligi va roziligini bildiradi.

### **4. Bank Kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish shartlari**

**4.1.** Bank quyidagi hujjatlar asosida karta hisobvarag'ini ochadi:

- Mijozning arizasi;

- Mijozning pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjati;
- Jismoniy shaxsning "KYC" shakli (keyingi o'rinlarda – "KYC" shakli);
- Qonun hujjatlari va Bankning Komplayens boshqarmasi talabiga ko'ra Bank tomonidan belgilanadigan boshqa hujjatlar;

**4.2.** Hisobvaraqlar mijoz lozim darajada tekshirish jarayonidan muvaffaqiyatli o'tgan taqdirdagina 2 (ikki) bank ish kuni davomida ochiladi;

**4.3.** Bank kartasi, mijoz nomiga bank kartasi hisobvarag'i ochilgan kundan keyingi 3 (uch) ish kuni davomida chiqariladi;

**4.4.** Agarda Bank tariflarida ayrim karta turlari uchun nazarda tutilgan taqdirda, kartaga yillik/oylik xizmat ko'rsatish uchun komissiya dastlabki davr uchun karta chiqarilgan kuni Mijozdan undiriladi. Keyingi davrlar uchun ushbu komissiya Kartaning amal qilish muddati tugagunga qadar, keyingi amal qilish muddatining birinchi kunida yechib boriladi.

**4.5.** Bank tariflarida Qo'shimcha bank kartasini chiqarish ko'zda tutilgan bo'lsa, mijoz ushbu xizmatdan foydalanish uchun ariza bilan Bankka murojaat qilish huquqiga ega. Mazkur xizmatning narxi Bank tariflariga muvofiq o'rnatiladi.

**4.6.** Qo'shimcha bank kartasi mijozning 14 (o'n to'rt) yoshdan oshgan va shaxsni tasdiqlovchi hujjat hamda qonunchilikda taqdim etilishi talab etiladigan boshqa hujjatlarga ega bo'lgan istalgan vakiliga chiqarib berilishi mumkin.

**4.7.** Qo'shimcha bank kartasi asosiy bank kartasining amal qilish davrining istalgan muddatida chiqarilishi mumkin. Qo'shimcha bank kartasining amal qilish muddati asosiy bank kartasida ko'rsatilgan muddatdan uzoqroq bo'lishi mumkin. Bank kartasi hisobvarag'i yopilganida qo'shimcha bank kartasi Bankka qaytarilishi lozim;

**4.8.** Qo'shimcha bank kartasi yordamida o'tkazilgan barcha operatsiyalar asosiy bank kartasi bilan o'tkazilgan amaliyotlarga tenglashtiriladi va ushbu Shartnoma vositasida tartibga solinadi;

**4.9.** Chiqarilgan Bank kartasi mijozga, mijoz tomonidan bankka shaxsini tasdiqlovchi hujjatning yoki amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hujjatlarning asl nusxasini taqdim etganidan so'ng topshiriladi;

**4.10.** Mijozning yozma yoki masofaviy bank xizmati ko'rsatish vositalari asosida, Bank Kartasining amal qilish muddati tugaganda, yo'qotilganda, shikastlanganda yoki mijozning o'z xohishiga ko'ra qayta chiqarilishi mumkin. Ushbu xizmat uchun Bank komissiyasi karta qayta chiqarish kunida amalda bo'lgan Bank tariflari asosida undiriladi;

**4.11.** Ushbu Shartnomaning 4.10-bandiga asosan qayta chiqarilgan bank kartalariga kartani qayta chiqarish vaqtida amalda bo'lgan standart shartnoma shartlari qo'llaniladi;

**4.12.** Shartnoma muddatidan avval bekor qilingan taqdirda, Bank tomonidan Bank kartasini rasmiylashtirish va unga xizmat ko'rsatish uchun undirilgan komissiyalar qaytarilmaydi, Bank kartasi hisobvarag'i hamda bank kartasi yopiladi. Bank kartasi hisobvarag'i yopilganda, barcha bank kartalari (asosiy va qo'shimcha) bankka qaytariladi. Bank kartalaridan pul mablag'lari qoldig'i mijozning bank kassasi orqali naqd pul bilan qaytarilishi yoki mijozning bank hisobraqamlariga naqdsiz pul o'tkazish uchun yozma ariza asosida, mijozning bank oldidagi komissiyalari va/yoki boshqa qarzlari ushlab qolingandan keyin o'tkazilishi lozim.

Shartnomaning muddatidan avval bekor qilinishi uchun asos bo'lib mijozning tegishli arizasining mavjudligi yoki ushbu Shartnomaning 6.1.3, 6.1.9, 6.1.10 bandlarida ko'rsatilgan shartlarning mavjudligi hisoblanadi;

**4.13.** Karta hisobidagi sug'urta depozitining qoldig'i mijozga Kartani yopish to'g'risida ariza bergan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kun o'tgach beriladi.

## **5. Bank tariflari va mijoz bilan o'zaro hisob-kitoblar**

**5.1.** Shartnomaga asosan, Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Mijoz Bankka bitim tuzilgan sanada amal qiladigan tariflarga muvofiq komissiya va boshqa to'lovlarni to'lashga majburdir;

**5.2.** Agarda bank tariflarida boshqa shartlar nazarda tutilmagan bo'lsa, Bank bank kartasi hisobvarag'idagi mablag' qoldig'i uchun foiz hisoblamaydi;

**5.3.** Komissiya to'lovlarini undirish Shartnomaning 5.6-bandida belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

**5.4.** Amaldagi tariflar, mijoz tomonidan Arizani imzolashdan oldin, Bank tomonidan taqdim etiladi. Shartnomani akseptlash orqali Mijoz Tariflar bilan tanishganligini, ularning miqdori, o'zgartirish va amal qilish tartibiga rozi ekanligini tasdiqlaydi;

**5.5.** Bank amaldagi tariflarini bir tomonlama o'zgartirish/bekor qilish huquqiga ega;

**5.6.** Bank karta operatsiyalari miqdorini, bank komissiyalarini, shuningdek, Karta hisobvarag'iga yoki Kartaga noto'g'ri o'tkazilgan yoki yechib olinmagan pul mablag'larini va qarzdorlikni, shu jumladan, Mijozning Bank oldidagi boshqa majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni, agar karta hisobvarag'ida mablag' bo'lmasa / yetishmasa, karta hisobvarag'ini to'g'ridan-to'g'ri debitlash orqali undiradi:

- Mijoz tomonidan Bankda ochilgan har qanday bank hisobvaraqlarini O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Shartnoma shartlari va Bankning ichki hujjatlari asosida to'g'ridan-to'g'ri debitlash orqali va/yoki;

- Mijoz, Shartnomaning ushbu bandida ko'rsatilgan holatlar va tartibda, Bankka Mijozning qo'shimcha roziligisiz (akseptisiz) mablag'larni undirish huquqini beradi;

**5.7.** Agar Bank Tariflar va ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar / qo'shimchalar kiritsa, Bank bu haqida har qanday shartnomada qo'shimcha shartnoma tuzmasdan, mijozni bunday o'zgartirishlar / qo'shimchalarning kuchga kirish sanasidan kamida 10 (o'n) kalendar kun avval, quyidagi usullar orqali xabardor qiladi:

- Bank ofislaridagi ma'lumot stendlariga Shartnomaga va Tariflarga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalarni joylashtirish orqali;

- Bankning [www.kdb.uz](http://www.kdb.uz) saytida Tariflar va Shartnomaga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalarni joylashtirish orqali;

- Bankning ixtiyoriga ko'ra, boshqa yo'l bilan xabardor qiladi.

Komissiya miqdorini kamaytirish yuzasidan Bank tariflariga o'zgartirish kiritilgan (Mijoz uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan) taqdirda, Bank ushbu o'zgartirishlar kuchga kirgan kundan keyingi kundan kechiktirmasdan bir tomonlama tartibda Bank tariflariga kiritilgan o'zgartirishlarni qo'llashga haqli.

**5.8.** Pul mablag'larini Bank kartasi hisobvarag'iga o'tkazish hisobvaraqa valyutasida amalga oshiriladi. Pul mablag'larini Bank kartasi hisobvarag'iga o'tkazish bankdagi (boshqa banklardagi) hisobvaraqlardan naqd pulsiz o'tkazish, shuningdek, bank kassasi orqali naqd pul yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bank tariflariga muvofiq avtomatlashtirilgan xizmat ko'rsatish punktlari orqali amalga oshirilishi mumkin;

**5.9.** Mijozning bank kartasidan naqd pul mablag'larini bank kassasi yoki bankomatlar orqali berish Bank tomonidan belgilangan kunlik limit doirasida amalga oshiriladi va komissiya bankning tasdiqlangan tariflariga muvofiq undiriladi;

**5.10.** Mijozning Bank kartasi hisobvarag'ining debitlanishi ushbu Shartnomaning 6.1.4-bandida ko'rsatilgan hollarda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda amalga oshiriladi;

**5.11.** Agar amalga oshirilgan Karta operatsiyasi Mijoz tomonidan tan olinmagan bo'lsa, Mijoz karta bilan operatsiya amalga oshirilgan kundan boshlab 40 (qirq) kalendar kuni davomida bu haqda Bankka operatsiyaga tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda xabar berish huquqiga ega.

Bank, mijozning arizasi asosida, vaziyatni to'lov tizimida ko'zda tutilgan muddatlarda o'rganib chiqadi va mijoz nomidan to'lov tizimi qoidalarida ko'zda tutilgan bo'lsa, tegishli Karta operatsiyasini rad etish (Dispute/Chargeback) jarayonini boshlashi mumkin. Mijozdan rad etish arizasining qabul qilinganligi, Bankning mijozga mablag'ni qaytarib berish majburiyatini anglatmaydi. Mijoz arizasida ko'rsatilgan tranzaksiya bo'yicha Chargeback/Dispute harakatlarini

amalga oshirish uchun barcha xarajatlar Mijoz hisobidan o'sha davrda amalda bo'lgan Bank tariflariga muvofiq undiriladi.

Bank Dispute/Chargeback natijasi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi, Dispute/Chargebackning muvaffaqiyatli hal qilinishini va Mijozga pulning qaytarilishini o'z zimmasiga olmaydi va kafolatlamaydi.

Amalga oshirilgan Karta operatsiyasi Dispute/Chargeback qilinishi muvaffaqiyatli yakunlansa, Bank Benefitsiar tomonidan qaytarilgan pul mablag'larini tegishli Karta hisobvarag'iga to'lov tizimining talablarida ko'rsatilgan muddatlarda o'tkazadi;

**5.12.** Karta hisobvarag'ining valyutasidan farqli bo'lgan boshqa valyutada bank kartasi bo'yicha operatsiyani amalga oshirishda konvertatsiya qilish va mijoz bilan keyingi o'zaro hisob-kitoblar bankning amaldagi tariflariga muvofiq amalga oshiriladi;

**5.13.** O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda mijozning Bank kartasi hisobvarag'ini uchinchi shaxslar tomonidan to'ldirishiga yo'l qo'yiladi.

## **6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

### **6.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:**

**6.1.1.** Bank mablag'lar manbasi to'g'risida tasdiqlangan hujjatlarni so'rab olish orqali mijozlarni komplayens tekshiruvidan o'tkazish; tovarlar/pul mablag'lari va boshqalarning qo'shimcha yakuniy foydalanuvchilarini o'rganish; komplayens talablarga rioya etilishi bilan bog'liq har qanday so'rovnomalarni oladi.

Hisobvara q ochishga/ kartalarni chiqarishga Komplayens boshqarmasining ijobiy xulosasi olinganidan keyin 2 (ikki) ish kuni davomida yo'l qo'yiladi. Komplayens tekshiruvidan o'tmagan taqdirda, Bank xizmat ko'rsatishni rad etishga haqli;

**6.1.2.** O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va yo'riqnomalariga muvofiq, mijozni to'g'ri identifikatsiya qilish va lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, mijozga Bank kartasi hisobvarag'ini ochish, bank kartasini taqdim etish yoki uni almashtirish rad etilishi mumkin;

**6.1.3.** Bank tomonidan ariza olinib, bank kartasi chiqarilgan vaqtdan boshlab 2 (ikki) oy mobaynida mijoz bank kartasini olmasa, Bank karta hisobvarag'ini va unga birlashtirilgan bank kartalarini yopish, bank kartasini (qo'shimcha bank kartasini) bekor qilish va yo'q qilish huquqiga ega. Bunday holatlarda bank kartasini rasmiylashtirish va qayta rasmiylashtirish uchun mijozdan olingan komissiyalar mijozga qaytarilmaydi;

**6.1.4.** O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Shartnoma shartlarida belgilangan tartibda Mijozning bank kartasi hisobvarag'idan mablag'larni akseptsiz hisobdan chiqarish:

**6.1.4.1.** Bank kommissiyalari va bank kartasi hisobvarag'i va/yoki bank kartasiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq boshqa to'lovlar;

**6.1.4.2.** Bank kartasidan foydalangan holda hisob-kitob ma'lumotlari asosida operatsiyalar summasi;

**6.1.4.3.** Bank va mijoz o'rtasida tuzilgan kredit shartnomalari, kafillik shartnomalari tufayli mijozning muddati o'tgan ssuda qarzlari bo'yicha bank talablari;

**6.1.4.4.** O'zbekiston Respublikasi sud-ijro organlarining ijro hujjatlari asosida jarimalar, qarzlilar va boshqa majburiyatlar summasi;

**6.1.4.5.** Mijoz tomonidan shartnoma shartlariga va/yoki bank kartasidan foydalanish qoidalariga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va to'lov tizimi qoidalariga rioya qilmaslik natijasida bank tomonidan yetkazilgan zararlarning summasi;

**6.1.4.6.** Mijozning bank kartasi hisobvarag'iga ortiqcha yoki noto'g'ri o'tkazilgan pul miqdori;

**6.1.5.** Ushbu Shartnomaning 5.7-bandiga muvofiq o'zgarishlar haqida mijozlarga oldindan xabar berish orqali, tariflar, shartnoma shartlari va foydalanish qoidalariga bir tomonlama o'zgartirish, qo'shimcha kiritish hamda tariflarni bekor qilish;

**6.1.6.** Karta bo'yicha operatsiyani amalga oshirishga Bank tomonidan avtorizatsiya berilgan taqdirda, operatsiya uchun pul mablag'lari hisobdan chiqarilgunga qadar yoki mablag' hisobdan chiqarilmagan taqdirda 30 (o'ttiz) kalendar kunga qadar Kartadagi mablag'larni blokirovka qilish;

**6.1.7.** Bankda ochilgan mijozning barcha hisobvaraqlaridan, Mijozning roziligisiz mijozning hisobvarag'iga noto'g'ri o'tkazilgan mablag'lar va texnik overdraft summasini hisobdan chiqarib tashlash, xatoliklar va / yoki amaldagi qonunchilikning va/yoki qoidalarining buzilishi natijasida vujudga kelgan pul mablag'larini qaytarish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun komissiya xarajatlarini va Mijoz foydalangan boshqa bank mahsulotlari bo'yicha qarzdorlikni hamda ular bo'yicha foizlarni undirish;

**6.1.8.** Mijozga yoki uning tranzaksiyasiga sanksiya qo'yilgan yoki sanksiya qo'llanilishi xavfi mavjud bo'lgan taqdirda, Bank tranzaksiyani o'rganish uchun qo'shimcha ma'lumotlar so'rash, tranzaksiyalar hajmini cheklash, Komplayens boshqarmasi tomonidan tayyorlangan so'rovnomada mijoz tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos kelmaydigan tranzaksiyalarni amalga oshirilishini rad etish, shu jumladan, hisobraqamlarga xizmat ko'rsatishni rad etish hamda mijoz bilan shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega;

**6.1.9.** Mijoz shartnoma shartlariga va/yoki bank kartasidan foydalanish qoidalariga, amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda to'lov tizimi qoidalariga rioya qilmagan, hamda shubhali operatsiyalar o'tkazgan taqdirda, bank kartasi amal qilishini Mijoz yozma tushuntirish berguniga qadar vaqtinchalik to'xtatib turish yoki shartnomani bekor qilish (kartani olib qo'yish haqida buyruq berish) orqali to'xtatish. Bunda asosiy bank kartasining amal qilishi vaqtincha to'xtatib turilganda yoki butunlay to'xtatilganda barcha qo'shimcha kartalarning faoliyati ham vaqtincha to'xtatib turiladi yoki butunlay to'xtatiladi;

**6.1.10.** O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlarining ijro hujjatlari asosida bank kartasi amal qilishini to'xtatib turish;

**6.1.11.** Komplayens boshqarmasi so'roviga ko'ra, Bank mijozning tranzaksiyasini ijro etishdan avval, mijozdan bitimning barcha bosqichlaridagi tarafklar to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olish yo'li bilan tranzaksiyaning maqsadi, mablag'lar manbasi, benefitsiarlar va benefitsiarlarning banklari to'g'risidagi ma'lumotlarini Lozim darajada tekshirishning kuchaytirilgan chora-tadbirlarini ko'rish hamda Komplayens boshqarmasining ijobiy xulosasi olinganidan keyin 2 (ikki) ish kuni davomida mijozning bitimini ijro etishga haqli. Lozim darajada tekshirishning kuchaytirilgan chora-tadbirlari muvaffaqiyatsiz yakunlangan taqdirda, Bank mijozning tranzaksiyasini rad etishga haqli;

**6.1.12.** Bank qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **6.2. Bank majburiyatlari:**

**6.2.1.** Ushbu Shartnomaning 4.3-bandiga muvofiq o'rnatilgan muddatda bank kartasi chiqarilishini ta'minlash;

**6.2.2.** Bank kartasi buzilgan, o'g'irlangan yoki yo'qolgan taqdirda, mijoz tomonidan yozma ariza taqdim etilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni mobaynida bloklanishi va yangi bank kartasi chiqarilishini ta'minlash;

**6.2.3.** Bank kartasining amal qilish muddati tugagan taqdirda, mijoz tomonidan yozma ariza taqdim etilgan vaqtdan boshlab 3 (uch) ish kuni mobaynida yangi bank kartasi chiqarilishini ta'minlash;

**6.2.4.** Bank kartasi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar, shu jumladan bank komissiyalari va boshqa to'lovlar bo'yicha Bank kartasi hisobvarag'ini ushbu Shartnomaning 6.1.4-bandiga muvofiq debetlash;

**6.2.5.** Mijozning yozma arizasiga ko'ra, hisobot davrida bank kartasi hisobvarag'i uchun tasdiqlangan barcha operatsiyalarni aks ettiradigan mijozning ko'chirmasini tayyorlash. Ko'rsatilgan ko'chirma mijozga shaxsan bankda yoki elektron aloqa vositalaridan foydalanish orqali mijozning arizasida ko'rsatilgan tartibda taqdim etiladi;

- 6.2.6.** Mijozdan ushbu Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi ariza olinganda, bank kartasidan pul mablag'larining aktiv qoldig'ini bank kassasi orqali naqd pulda berish yoki mijozning bank oldidagi komissiyalar va/yoki boshqa qarzlarni ushlab qolgan holda pul mablag'larini naqd pulsiz o'tkazish uchun arizada ko'rsatilgan mijoz rekvizitlari bo'yicha naqdsiz pul o'tkazmasini o'tkazish;
- 6.2.7.** Mijozning arizasi asosida Kartani blokirovka qilish;
- 6.2.8.** Bank qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **6.3. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:**

- 6.3.1.** Kartadagi mavjud mablag'larni mustaqil tasarruf etish, ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda bank kartasi bilan operatsiyalarni amalga oshirish;
- 6.3.2.** Masofaviy xizmatlarni (SMS, Internet-banking, mobil-banking va boshqalar) ulash orqali Kartadagi qoldiq va amalga oshirilgan operatsiyalar haqida ma'lumot olish;
- 6.3.3.** Bank tariflarida nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu Shartnoma shartlari asosida qo'shimcha bank kartasini chiqarish;
- 6.3.4.** Karta yo'qolgan, shikastlangan yoki amal qilish muddati tugagan taqdirda, kartani qayta chiqarish uchun yozma ariza bilan bankka murojaat qilish;
- 6.3.5.** Shartnoma shartlariga muvofiq kartadan foydalanishni rad etish va Karta hisobvarag'ini yopish;
- 6.3.6.** Agar arizada boshqa shartlar ko'rsatilmagan bo'lsa, har oyda bankdan o'tgan oy uchun Bank kartasi hisobvarag'idan ko'chirma olish;
- 6.3.7.** Bankning [www.kdb.uz](http://www.kdb.uz) veb-saytiga muntazam tashrif buyurish va tariflar yoki foydalanish qoidalariga kiritilgan o'zgartishlar bilan tanishish;
- 6.3.8.** Mijoz qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin;

### **6.4. Mijoz majburiyatlari:**

- 6.4.1.** Kartadan ushbu Shartnoma shartlari va to'lov tizimi qoidalari (2-ilova)ga muvofiq foydalanish;
- 6.4.2.** Karta va / yoki karta ma'lumotlari yordamida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun moliyaviy javobgarlik mijozning o'z zimmasida;
- 6.4.3.** Kartadan faqat Kartadagi faol qoldiq doirasida foydalanish;
- 6.4.4.** Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq maqsadlarda bank kartasidan operatsiyalar o'tkazmaslik. Bank tomonidan bank kartasidan foydalanishni to'xtatish zarurligi to'g'risida xabarnoma olingan taqdirda, kartani bankka xabarnoma olingan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kun ichida qaytarib berish;
- 6.4.5.** Bank kartasini yoki bank kartasiga tatbiq etilgan rekvizitlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun bermaslik; PIN-kodni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik; Savdo nuqtalarida kontaktsiz to'lovlarni amalga oshirishda hushyor bo'lish, Bank kartasining rekvizitlaridan foydalangan holda Internet orqali to'lovlarni amalga oshirishda ehtiyot bo'lish, ishonchsiz saytlarda to'lovni amalga oshirmaslik; faqat ishonchli va tasdiqlangan to'lov tashkilotlari hamda banklarning mobil ilovalaridan foydalanish; bank kartasi va bank kartasi rekvizitlarini o'zida saqlovchi barcha qurilmalarning ishonchli saqlanishini ta'minlash;
- 6.4.6.** Bank kartasi bilan operatsiyalar bo'yicha barcha hujjatlarni operatsiya amalga oshirilgan sanadan boshlab 3 (uch) oy mobaynida yoki kartaning amal qilish muddati boshlanganidan so'ng saqlab qo'yish hamda ularni bankka birinchi talab bo'yicha yoki bahsli holatlar va masalalarni hal qilish uchun taqdim etish;
- 6.4.7.** Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarga tegishli bo'lgan barcha o'zgarishlar haqida, o'zgartish kiritilgan vaqtdan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay, bankni yozma ravishda xabardor qilish. Familiyasi, ismi yoki otasining ismi o'zgarganda, o'zgarishni tasdiqlovchi yozma ariza va hujjatni taqdim etish, shuningdek kartani qayta rasmiylashtirish uchun bankka qaytarish;



**6.4.8.** Karta yo‘qolgan yoki o‘g‘irlangan, shuningdek, Mijozning ruhsatisiz operatsiyalar amalga oshirilganligidan gumon qilingan taqdirda, darhol Bankning mobil ilovasi yoki boshqa masofaviy xizmatlari orqali kartani blokirovka qilish choralarini ko‘rish. Kartani masofaviy blokirovka qilish imkoni mavjud bo‘lmagan taqdirda, telefon orqali Bankni xabardor qilish (bunda Mijoz telefon suhbatlari uchun o‘z parolini aytishi va mijozni identifikatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan boshqa savollarga to‘g‘ri javob berishi lozim);

**6.4.9.** Ushbu Shartnomada telefon yoki masofaviy xizmatlar orqali amalga oshirish imkoni nazarda tutilmagan barcha hollarda, yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun Mijoz shaxsan, zarurat tug‘ilganda esa yozma ravishda Bankka murojaat qilishi shart;

**6.4.10.** Mijoz ushbu Shartnomaning 1-ilovasida qayd etilgan arizani imzolab, quyidagilarni tasdiqlaydi:

- Mijoz o‘z shaxsiy ehtiyoji uchun ushbu hujjatga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va nazorat qilish maqsadida, Bank xodimlari bilan telefon suhbatlarini yozib olish, shuningdek, yozuvlarni suhbat dalili sifatida ishlatishga o‘z roziligini beradi;
- Bank xizmatlarini ko‘rsatish uchun Bank har qanday aloqa vositalaridan (shu jumladan elektron, raqamli va h.k.) foydalanishi mumkinligiga rozilik beradi;
- Mijoz o‘zining shaxsiy va boshqa ma‘lumotlariga ishlov berilishiga, shuningdek, o‘zi haqidagi tegishli ma‘lumotlarni, Bank va Bank tanlagan manbalarga mos keladigan shaklda olinishiga rozilik beradi;
- Ushbu Shartnoma tuzilganidan so‘ng, mijoz autentifikatsiya ma‘lumotlarining saqlanishi, ularning uchinchi shaxslarga o‘tkazilishi va ushbu ma‘lumotlardan foydalangan holda Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun shaxsan javobgar sanaladi;

## **7. Kartani blokirovka qilish**

**7.1.** Bank quyidagi hollarda o‘z tashabbusi bilan Kartani blokirovka qilishga haqli:

- Mijoz tomonidan shartnoma shartlari buzilganda;
- Bank tomonidan Mijoz va / yoki Bankka zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan holatlar mavjud deb hisoblanganda;
- Bankda Mijozning Kartadan noqonuniy / firibgarlik operatsiyalarini amalga oshirishda foydalanganligi yuzasidan gumon paydo bo‘lganda, agar Karta bilan amalga oshirilgan operatsiyalarning mohiyati Bank tomonidan yuqori xavfli operatsiyalar deb tasniflangan operatsiyalar mezonlariga to‘g‘ri kelsa;
- Bankka to‘lov tizimi tomonidan tizimda mavjud savdo nuqtalarida Karta ma‘lumotlarining komprometatsiya (qalbakilashtirilish) xavfi to‘g‘risida ma‘lumot kelib tushganda;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga Shartnoma shartlarida ko‘rsatilgan operatsiyalarni cheklaydigan o‘zgartishlar kiritilganda;

**7.2.** Bank kartasi mijozning quyidagi murojaatlari asosida blokirovka qilinishi mumkin:

- Telefon orqali (telefon so‘zlashuvlari uchun parolga doir va boshqa identifikatsion savollarga to‘g‘ri javob berish orqali);
- Bankka ariza berish yoki masofaviy xizmatlardan foydalanish orqali (SMS, Internet banking, Mobil ilova orqali);

**7.3.** Bank kartasini blokirovkadan chiqarish, Bankning ichki me‘yoriy hujjatlarida ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Bank mazkur shartnomaning 7.1-bandida ko‘rsatilgan blokirovka qilish oqibatlari uchun javobgar emas;

## **8. Kartadan foydalanishda va karta operatsiyalarini amalga oshirishda cheklovlar**

**8.1.** Bank Mijozning pul mablag‘lari xavfsizligini ta‘minlash maqsadida, karta orqali tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarga, shuningdek, Kartadan naqd pul yechishga kunlik limit o‘rnatishi mumkin. Mazkur cheklovlar mijozning Arizasiga binoan, vaqtincha oshirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Ushbu Shartnoma shartlariga rozilik bildirish orqali Mijoz joriy limitlar, ularni o‘zgartirish

va qo'llash tartibi bilan tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi hamda bunday cheklovlarni belgilash va o'zgartirish tartibiga o'z roziligini bildiradi;

**8.2.** Mijoz pul mablag'larining xavfsizligini ta'minlash maqsadida, Bank kartalari vositasida firibgarlik operatsiyalarining global tendensiyasiga asoslanib, Bank ma'lum bir vaqt davomida bitta savdo nuqtasida o'tkaziladigan bitimlar miqdoriga, ma'lum bir operatsiyalar soniga, shuningdek, ma'lum bir davrda turli mamlakatlarda Kartadan foydalanishga va boshqalarga nisbatan cheklovlar o'rnatishi mumkin. Mijoz ushbu Shartnoma shartlariga rozilik berish orqali mazkur shart hamda uni qo'llash tartibi bilan tanishganligini tasdiqlaydi va bunday cheklovlarning o'rnatilishiga o'z roziligini bildiradi.

## **9. Taraflarning javobgarligi**

**9.1.** Bank kartasi, karta raqami, Karta PIN kodidan uchinchi shaxslar tomonidan foydalanganlik uchun, agar bunday foydalanish Mijoz (vakil)ning xabardorligi bilan amalga oshirilgan taqdirda yoki uning oqibatida Mijoz (vakil) tomonidan mazkur Shartnoma va/yoki Qoidalarda qayd etilgan shartlarning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan, shuningdek, Mijozning o'zi tomonidan amalga oshirilgan va keyinchalik bekor qilingan operatsiyalar uchun moliyaviy javobgarlikni Bank o'z zimmasiga olmaydi;

**9.2.** Bank PIN-kodni bank kartasiga biriktirish (o'rnatish) majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi. Mijoz bank filialida bank kartasini olishda PIN-kodni mustaqil ravishda tayinlashi (belgilashi) shart. Agar bank tomonidan bank kartasiga standart PIN-kod o'rnatilgan bo'lsa, mijoz, bank kartasini qabul qilayotganda:

- standart PIN-kodni shaxsiy kodga o'zgartirishi;
- SHTH ni taqdim etib, Bank kassasidan PIN konvertni olishi zarur;

**9.3.** Bank o'z nazoratidan tashqarida bo'lgan va tashqi to'lov, hisob-kitoblar, ma'lumotlarga ishlov berish hamda uzatish tizimlarining ishlamay qolishi bilan bog'liq holatlar uchun, shuningdek, Karta uchinchi shaxs tomonidan to'lovga qabul qilinmagan taqdirda javobgarlikni zimmasiga olmaydi;

**9.4.** Mijoz, shu jumladan, uchinchi shaxslar tomonidan Bank kartasidan, uning analogi yoki rekvizitlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyotlar uchun javobgar hisoblanadi;

**9.5.** Mijoz Bank kartasi hisobvarag'iga ortiqcha yoki noto'g'ri o'tkazilgan mablag'larning sarflab yuborilganligi uchun javobgar hisoblanadi. Bank kartasi hisobvarag'iga ortiqcha yoki noto'g'ri o'tkazilgan mablag'lar, shu jumladan mazkur mablag'lar hisobidan sarflab yuborilgan mablag'lar to'la hajmda, Bankdan bildirishnoma olingan paytdan e'tiboran 3 (uch) ish kuni mobaynida Mijoz tomonidan Bankka qaytarilishi lozim;

**9.6.** Bank mijozdan bank kartasining yo'qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida ariza qabul qilingan vaqtdan so'ng arizada ko'rsatilgan bank kartasi yordamida amalga oshiriladigan barcha operatsiyalar bo'yicha javobgar hisoblanadi.

**9.7.** Tomonlar o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarda, ya'ni favqulodda yoki yengib bo'lmaydigan holatlar, shu jumladan tabiiy hodisalar, harbiy harakatlar, ommaviy tartibsizliklar yuz berganda, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi normativ hujjatlarni qabul qilish, ushbu normativ hujjatlarning qabul qilinishi mazkur shartnoma yuzasidan Taraf hisoblangan tomonning aybdor harakatlari bilan bog'liq bo'lmagan taqdirda, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmagani yoki lozim darajada bajarilmagani uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.

**9.8.** Bank quyidagilar uchun javobgar hisoblanmaydi:

- Mijozning o'z shaxsiy ma'lumotlari (famiyasi, telefon raqami, doimiy propiska manzili va hk.) o'zgarganligi yuzasidan Bankni o'z vaqtida xabardor qilmaslik oqibatlari uchun;
- Mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari yo'qolganligi / o'g'irlanganligi to'g'risida Bankka o'z vaqtida xabar bermaslik oqibatlari uchun;

- Vakolatli organlar va mansabdor shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq taqdim etgan ko‘rsatmalari asosida, Karta hisobvarag‘idagi mablag‘larga band solingan yoki Karta hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatib qo‘yilgan taqdirda, Karta hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirib bo‘lmasligi, shuningdek, ushbu Shartnomaning 9.2-bandi va 11-bo‘limida belgilangan hollarda;
- Mijozning ushbu Shartnoma va uning ilovalari shartlarini bajarmasligi natijasida ko‘rgan zarari uchun.

## **10. Shaxsga doir ma’lumotlar**

**10.1.** Bank tomonidan qabul qilingan Mijozning shaxsiy ma’lumotlari quyidagilar uchun foydalaniladi hamda foydalanilishi mumkin:

**10.1.1.** Mijoz manfaatdor shaxs bo‘lgan shartnomalarni tuzish va bajarish;

**10.1.2.** Mijozning huquq va majburiyatlariga lozim darajada amal qilinishini ta’minlash;

**10.1.3.** Mijozni jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmi moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish borasida lozim darajada tekshirish;

**10.1.4.** Shartnomaning bajarilishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni mijozga taqdim qilish;

**10.1.5.** Sug‘urta, pochta va aloqa tashkilotlariga ma’lum qilish;

**10.1.6.** Davlat va boshqa tashkilotlarga, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarga qarzdorlikni undirish uchun taqdim qilish;

**10.1.7.** Yangi bank xizmatlarini taklif qilish, marketing tadqiqotlari o‘tkazish, o‘rganishlarni amalga oshirish, mijoz haqida kredit ma’lumotlarini olish va hk;

**10.2.** Mijoz Bankka ushbu Shartnomada ko‘zda tutilgan harakatlarni amalga oshirish uchun, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuniga; muvofiq, mijozga tegishli har qanday shaxsga doir ma’lumotlarni saqlash va ishlov berish, shu jumladan, avtomatlashtirilgan tartibda ishlov berish, to‘plash, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, ulardan foydalanish, ularni taqdim etish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo‘q qilish yuzasidan vakolat beradi, shuningdek, ushbu Shartnomada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida shaxsga doir ma’lumotlarning uchinchi shaxslarga uzatilishiga rozilik beradi.

## **11. Boshqa shartlar**

**11.1.** Xorijiy telefon raqamlari uchun SMS-xabar xizmatini yoqishga ruxsat etilmaydi;

**11.2.** Bank karta hisobvarag‘idan ko‘chirmani mijozning talabiga asosan taqdim etadi va buning uchun bank tariflarida ko‘zda tutilgan komissiya undiriladi. Mijoz, agarda bunday xizmatlar Bank tomonidan taqdim etilsa, masofaviy xizmatlar (SMS, Internet-banking, Mobil-bank va boshqalar) orqali amalga oshirilgan operatsiyalar va kartadagi mablag‘lar qoldig‘i to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish huquqiga, Bank esa bunday ma’lumotlarni uzatish huquqiga ega.;

**11.3.** Mijoz SHTH dagi yoki aloqa ma’lumotlarini o‘zgartirish to‘g‘risida ariza berganida, o‘zgartirishlar Bank tomonidan mijozdan tegishli yozma xabarnoma olingan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Agar Mijoz masofaviy xizmatlarga ulangan bo‘lsa (SMS-xabarnoma va boshqalar), Mijoz Bankdagi operatsiyalar va / yoki kartadagi qoldiq to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish, shuningdek, masofaviy xizmatlar uchun ishlatiladigan aloqa ma’lumotlarining o‘zgargani haqida, Bankka darhol xabar berishga majburdir. Bu talab bajarilmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlar uchun mijoz mas‘ul hisoblanadi;

**11.4.** Bank Mijoz tomonidan Bankka yuborilgan elektron hujjatlarni (shu jumladan masofaviy xizmatlar orqali), Bank tomonidan mijozdan qog‘oz nusxada qabul qilingan va mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjatga muvofiq, mijozning imzosi bilan tasdiqlangan haqiqiy hujjatlarning ekvivalenti sifatida ko‘rib chiqishi mumkin. Ushbu qoida faqat Bankning ichki me‘yoriy hujjatlarida ruxsat etilgan harakatlarga nisbatan qo‘llaniladi;

**11.5.** Telefon suhbatlari uchun to'g'ri parol, Bank xodimlarining mijozning shaxsini aniqlashga qaratilgan boshqa savollariga to'g'ri javoblar taqdim qilingan, shuningdek, Bankning ichki tartib-qoidalariga muvofiq boshqa ruxsat etilgan harakatlar amalga oshirilgan, shu jumladan, masofaviy xizmatlar orqali Mijoz muvaffaqiyatli identifikatsiya qilinganidan so'ng, mazkur masofaviy xizmatlar, mijozning qog'ozga tushirilgan va mijozning SHTHdagi imzo namunasiga muvofiq imzolangan yozma shakldagi ko'rsatmalari bilan bir xil kuchga ega deb topiladi. Mijozning shaxsini aniqlashda shubha tug'ilgan taqdirda, Bank ma'lumot berishdan bosh tortish yoki telefon orqali qabul qilingan arizalar bo'yicha chora ko'rish va Mijozdan yoki u vakolat bergan shaxsdan Bank bilan shaxsan bog'lanishini so'rashga haqli;

**11.6.** Bank Mijozdan qo'shimcha rozilik olmagan holda quyidagilarga haqli:

- uchinchi shaxslarga Mijozning qarzdorligini qoplash bo'yicha o'z huquqlarini (da'volarini), kerakli huquq (da'vo) haqiqiylikini tasdiqlovchi barcha hujjatlar bilan birga topshirish;
- uchinchi shaxslarga qarzdorlikni undirishni va ularga Bank buyurtmasini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish;

**11.7.** Bank Mijozga tegishli so'rov yuborish orqali Mijozning Bank oldidagi qarzini muddatidan avval so'ndirish muddatini belgilashga haqli.

**11.8.** Agar O'zbekiston Respublikasi valyuta va / yoki boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, Karta operatsiyasini amalga oshirish yoki Karta hisobvarag'idan operatsiyani amalga oshirish uchun Mijoz tomonidan qo'shimcha hujjatlar qabul qilinishi / taqdim etilishi talab qilinsa, Mijoz bunday hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda va tartibda, operatsiya o'tkazilgan vaqtdan kechiktirmay olish / taqdim etish majburiyatini oladi;

**11.9.** Bank Mijozga Shartnomada yoki Bankning boshqa qabul qilingan hujjatlarida ko'rsatilgan tafsilotlar bo'yicha (shu jumladan, pochta manzili, elektron pochta manzili, faks raqami, mobil telefon va boshqalar) hamda masofaviy xizmatlar orqali turli ma'lumot materiallarini (shu jumladan, bildirishnomalarni) yuborishga haqli;

**11.10.** Shartnoma o'zbek va rus tilida tuzilgan bo'lib, uning har ikkala matni ham bir xil yuridik kuchga ega. Shartnoma matnlari o'rtasida ziddiyat/tafovut aniqlangan taqdirda, davlat tilidagi shartnoma qoidalari ustuvor hisoblanadi;

**11.11.** Shartnomada ko'zda tutilmagan boshqa barcha masalalarda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlariga morojaat etiladi;

## **12. Shartnomaning amal qilish muddati, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda bekor qilish tartibi**

**12.1.** Shartnoma ariza imzolangan yoki mijoz masofaviy xizmatlar orqali Shartnomaga rozi bo'lgan paytdan boshlab kuchga kiradi va:

- Mijoz Bankka shartnoma talablarini inobatga olgan holda, Karta hisobini yopish va Kartani bekor qilish uchun murojaat qilguniga qadar, qoplanmagan qarzdorlik mavjud holatlar bundan mustasno;
- Shartnomaga muvofiq emissiya qilingan Kartaning amal qilish muddati tugagunga qadar, so'ndirilmagan qarzdorlik mavjud bo'lgan holatlarni istisno qilgan holda, kartaning amal qilish muddati tugaganidan so'ng, mijozning Karta hisobraqamida Mijozning qoldiq mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda esa - Bank ushbu Shartnomaning 6.2.6-bandida ko'rsatilgan o'z majburiyatlarini bajargunga qadar yoxud;
- Bank O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda Karta hisobini yopgunga qadar amal qiladi.

Karta qayta emissiya qilingan taqdirda, Shartnoma muddati har safar qayta emissiya qilingan Kartaning amal qilish muddati tugagunga qadar uzaytiriladi, bunda shartnoma shartlari hisobga olinadi.

**12.2.** Mijoz shartnoma shartlarini buzgan taqdirda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, Bank Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli;

**12.3.** Mijoz istalgan vaqtda Shartnomani bekor qilish rejalashtirilgan sanadan kamida 30 (o‘ttiz) kalendar kun avval Bankka yozma ravishda xabar qilish orqali Shartnomani bekor qilishga haqli. Bunday holda, Karta Mijoz tomonidan ko‘rsatilgan Shartnoma bekor qilingan sanada bekor qilinadi. Shartnomani bekor qilish va Kartani yopish to‘g‘risida yozma ariza bilan Mijoz Kartani Bankka qaytaradi. Mijoz shartnoma bekor qilinganligi to‘g‘risida xabarnoma yuborgan kundan kechiktirmay, mavjud qarzdorlikni to‘lashga majburdir. Mijoz Shartnomaning ushbu bandida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, Mijoz shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunga qadar Shartnomaning tegishli qismi amal qiladi. Shartnomani bekor qilishning ushbu bandda belgilangan tartibiga Mijoz tomonidan rioya qilinmagan holda Kartadan foydalanishdan bosh tortilishi Shartnoma hamda Kartaning bekor qilinishiga olib kelmaydi;

**12.4.** Karta bekor qilingan taqdirda, Shartnomaning tegishli qismi, tomonlar Shartnoma shartlari bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunlariga qadar amal qiladi;

**12.5.** 10 (o‘n) kun mobaynida Bank tomonidan Tariflarga va ushbu Shartnomaga kiritilgan o‘zgartirishlar / qo‘shimchalarga Mijoz tarafdin e‘tiroz bildirilmagan taqdirda, mazkur o‘zgartirishlar / qo‘shimchalar Mijoz tomonidan qabul qilingan hisoblanadi. Agar Mijoz Tariflar va ushbu Shartnomaga kiritilgan o‘zgartirishlar yoki qo‘shimchalarga rozi bo‘lmasa, Mijoz ushbu Shartnomada belgilangan tartibda bunday o‘zgartirishlar / qo‘shimchalar kuchga kirgunga qadar Shartnomani bekor qilishga haqli;

**12.6.** Shartnoma xizmatlaridan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanilganligi yuzasidan asosli shubhalar mavjud bo‘lgan taqdirda, shartnoma bank tomonidan belgilangan tartibda bekor qilinadi;

### **13. Nizolarni hal etish**

**13.1.** Ushbu Shartnomani ijro etish mobaynida kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar, imkon qadar, tomonlar o‘rtasida muzokaralar yo‘li bilan hal qilinadi;

**13.2.** Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa, nizo Bank joylashgan hududdagi fuqarolik sudiga taalluqli bo‘ladi.

### **Bankning yuridik manzili va rekvizitlari**

“KDB Bank O‘zbekiston” AJ

Manzil: Toshkent sh., Mirobod tumani, Buxoro ko‘chasi, 3 uy

Bank rekvizitlari: h/r 19907000600000842001

MFO: 00842, STIR: 202167236,

IFUT: 64190, KTUT:16518153

Tel. +99878 120-80-00

# Shartnomaga 1 – ilova



AO KDB Bank Uzbekistan  
 Adres: 100063, Toshkent, Yul'gora 3  
 Tel.: (+998) 75 120-80-00  
 Fax: (+998) 75 120-85-75  
 Elektron: info@kdb.uz  
 Telefon dastur: (+998) 75 140-56-75

## Bank xizmatlaridan foydalanish arizasi

Men, \_\_\_\_\_  
FAMILIYA, ISM, SHARH

### SHAXSIY MA'LUMOTLAR

FUQAROLIGI: \_\_\_\_\_

JINSI:  ERKAK.  AYOL.

TUG'ILGAN KUNI \_\_\_\_\_ TUG'ILGAN JOYI \_\_\_\_\_

YASHASH MANZILI \_\_\_\_\_  
idontyuzmasurat (uz)Pulni qabul qilish uchun qabul qilingan bank xizmatlaridan foydalanish uchun qabul qilingan

RO'YXATDAN UTGAN MANZILI \_\_\_\_\_  
(BIRINCHI MANZILDAN FARQLI HOLLARDA TO'LOVILAB)

E-MAIL: \_\_\_\_\_ TELEFON: UY \_\_\_\_\_

INN: \_\_\_\_\_ (BIRINCHI) MOBIL \_\_\_\_\_

XIZMAT \_\_\_\_\_

### SHAXSINI TASDIQLOVCHI HUJJATI

O'ZBEKISTON FUQAROSI PASSPORTI  O'ZBEKISTON FUQAROSI ID-KARTASI  CHET EL FUQAROSI PASSPORTI

BOSHQA (YKABATb) \_\_\_\_\_

SERIYA VA RAQAMI \_\_\_\_\_ KIM TOMONIDAN BERILGAN \_\_\_\_\_ BERILGAN SANASI \_\_\_\_\_

### ISH JOYI/UQTISH:

ISH BERUVCHINING NOMI/OQUV OLIYGOH \_\_\_\_\_

ISH BERUVCHINING YURIDIK MANZILI/OQUV OLIYGOH \_\_\_\_\_  
idontyuzmasurat (uz)Pulni qabul qilish uchun qabul qilingan bank xizmatlaridan foydalanish uchun qabul qilingan

### LAVOZIMI

Sizdan so'rayman  depozit raqam ochishni:  karta xisobraqam ochib va bank plastik kartasini berish:

XISOBRAQAM VALYUTASI:  UZS  RUB  VISA INFINITE  UZCARD OYLIK

USD  EUR  VISA GOLD  VISA GOLD EURO  UZCARD SHAXSIY

GBP  VISA GOLD EURO EXCHANGE  HUMO OYLIK

sms xizmatini yoq'tish:  VISA CLASSIC  VISA CLASSIC SUM  HUMO SHAXSIY

TELEFON RAQAMI: \_\_\_\_\_  VISA CLASSIC EXCHANGE

TELEFON SUHBATLARI UCHUN PAROL: \_\_\_\_\_

Men ushbu arizada taqdim etgan ma'lumotlar to'g'ri va dolzarb ekanligini tasdiqlayman jismoniy shaxslar uchun bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma Ommaviy ofertasi shartlari bilan va Bankning www.kdb.uz rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Bank tariflarini o'qib chiqdim, ushbu arizani imzolagan sanadan boshlab ommaviy oferta shartnomasi shartlarini, so'zsiz va to'liq qabul qilaman, hech qanday shikoyatim yo'q.

SANA: \_\_\_\_\_

ARIZACHINING IMZOSI: \_\_\_\_\_

<b>ISH BERUVCHI / TA'LIM MUASSASASI TASDIQI</b>	
Biz shu bilan yuqorida ko'rsatilgan tashkilot xodimi/ta'labasi ekanligini tasdiqlaymiz	
M.L.	<small>ISH BERUVCHINING</small>

<b>BANK BELGISI</b>	
QABUL ETILGAN	TASDIQLANGAN
<small>RO'YXATDAN UTGAN</small>	<small>RO'YXATDAN UTGAN</small>

## **Shartnomaga 2 – ilova**

### **Kartadan foydalanish qoidalar**

- 1.** Ushbu Qoidalar Mijozga ko‘rib chiqish va qo‘llash uchun taqdim etiladi. Kartadan foydalanganda mijoz quyidagi shartlar va talablarga rioya qilishi shart.
- 2.** Kartani boshqa shaxslarga foydalanish yoki garov sifatida o‘tkazish taqiqlanadi. Ruqsatsiz shaxs tomonidan taqdim etilgan karta olib qo‘yilishi mumkin.
- 3.** Kartani salbiy omillarga ta‘sir qilishiga yo‘l qo‘yilmaydi: elektromagnit maydonlar (displeylarga yaqinlik, magnitlangan yoki magnitli narsalar, masalan, kalitlar, sumkalardagi magnit qulflar), mexanik shikastlanish (chizish, axloqsizlik, qizib ketish (masalan, quyosh nuri) va boshqalar magnit chiziqdagi yozuvni buzishi va operatsiyalarni avtomatlashtirilgan rejimda bajarishga imkon bermasligi mumkin. Kartadan foydalanishda ortiqcha kuch ishlatish tavsiya etilmaydi.
- 4.** Bank mijozning mobil telefon raqamiga yuborilgan Maxfiy kodini oshkor qilishi uchun javobgar emas.
- 5.** Bankomat bilan ishlashda shuni esda tutish kerakki, agar qaytarilgan Karta yoki chiqarilgan banknotalar Mijoz tomonidan ma‘lum vaqt ichida chiqaruvchi qurilmadan olinmasa, xavfsizlik tizimi ishlaydi va mijozning pulini saqlab qolish uchun Karta va / yoki banknotalar bankomatga joylashtirilishi va maxsus bo‘linmada saqlanishi mumkin. Bunday hollarda, mijoz bankomat egasiga murojaat qilishi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilishi va Kartani qaytarib berishni so‘rashi kerak.
- 6.** Bank, ruqsatsiz ishlatilishining oldini olish maqsadida, bloklangan Kartaning tafsilotlarini Kartaga xizmat ko‘rsatish punktlari tarmog‘i orqali yuborish huquqiga ega.
- 7.** Kartani xizmat ko‘rsatish punktida ushlab turish quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:
  - Karta bloklangan;
  - Karta egasi Mijoz emas;
  - Mijoz, Karta bilan operatsiyadan so‘ng, xizmat ko‘rsatish nuqtasida kartani unutgan bo‘lsa.
- 8.** Agar karta ushlab qolingani bo‘lsa, Mijoz Bank va tegishli mahalliy bank bilan og‘zaki (telefon orqali) yoki yozma ravishda bog‘lanadi.
- 9.** Qo‘lga olingan Karta mahalliy bank yoki Kartalarga xizmat ko‘rsatish markazi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Mijozga qaytariladi.
- 10.** Kartada uning amal qilish muddati va oyi ko‘rsatilgan. Karta belgilangan yilning belgilangan oyining oxirgi kunigacha amal qiladi. Muddati o‘tgan barcha kartalar blokirovka qilinadi va bankka qaytarilishi kerak.
- 11.** Karta hisobvarag‘i va karta bo‘yicha qo‘shimcha ko‘chirma pullik asosda, amaldagi Tariflarga muvofiq, Mijoz Bankka murojaat qilgan kundan boshlab 10 (o‘n) Bank kuni ichida taqdim etiladi.
- 12.** Agar Mijoz uchinchi shaxsga Karta hisobini tasarruf etish huquqini bergan bo‘lsa, ishonchnoma O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq tuziladi. Shu bilan birga, unda ishonchnoma taqdim etilayotgan shaxsning vakolatlari aniq ko‘rsatilishi kerak.